

TA`LIM TASHKILOTLARIDA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN PSIXOLOGIK YORDAM KO`RSATISHNING SAMARALI YO`LLARI.

Abdullayeva Xosiyat Artikovna

*Xorazm viloyati Urganch shahar MMTB ga qarashli
1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta`lim tashkilotlarida psixologik xavfsiz muhitni yaratish va ushbu jarayonda e`tiborga olinishi kerak bo`lgan jihatlar hamda psixologik xizmat va uning ayrim turlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: Inson psixologiyasi, psixologik xavfsizlik, psixologik xizmat, maslahat berish ishlari, “Bilmadim”. “Menga yordam kerak”. “Men xato qildim”. “Afsusdaman”.

Inson psixologiyasini tushinish, tahlil qilish, rivojlantirishga jiddiy e`tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning etakchi vazifalaridan biri bo`lib kelgan. XX asr bo`sag`asida psixologiya fani va uning ilg`or vakillari o`zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari-insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko`rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo`ldilar. Umuman, psixologik xizmat ko`rsatish muammosi ma`lum ma`noda, ilmiy psixologiyaning yetakchi yo`nalishlaridan biri sifatida ko`p bor munozaralar manbai bo`lgan.

Bugungi kunda ta`lim tizimiga berilayotgan e`tibor kundan-kunga kuchaymoqda. Faqatgina ularning inshoatlarigina yangilanib qolmasdan, balki ularning ichki muhitida ham tub burilishlar sodir bo`lmoqda. Xususan, ta`lim tashkilotlarida psixologik muhit, o`qituvchi va o`quvchilarga ko`rsatilayotgan psixologik yordam sifati tobora oshib bormoqda. Ushbu maqolada psixologik xavfsizlik yaratish va psixologik yordam ko`rsatishning samarali usullari haqida fikr yuritiladi.

Psixologik xavfsizlik - ta`lim sohasidagi tadqiqotlarda katta e`tiborga ega bo`lgan yangi tushuncha.

Psixologik xavfsizlik deganda odamlar o`zlarini xavfsiz va qulay his qiladigan, o`z fikrlari, g`oyalari va qarashlarini salbiy oqibatlardan qo`rqmasdan ifoda etadigan muhit tushuniladi. Maktablar borasida psixologik xavfsizlik ochiq muloqotni rivojlantirish, intellektual bahs-munozaralarni rag`batlantirish va hamkorlikda o`rganishni kuchaytirish uchun muhimdir. Maktab o`quvchilari o`zlarini psixologik jihatdan xavfsiz his qilganlarida ular darslarda faol ishtirok etishlari, kerak bo`lganda yordam so`rashlari va tengdoshlari hamda o`qituvchilari bilan ijobiy munosabatlarni yanada rivojlantirishlari mumkin. Shu ma`noda: Bu tuyg`uni kuchaytirish yanada

samarali bo'lishi uchun uning asosiy punktlari, dastlabki holatlari va oqibatlarini tushunish muhimdir. Psixologik xavfsizlik turli elementlarni, jumladan, ishonch, hurmat, xilma-xillikni qabul qilish, fikr bildirish erkinligi va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash kabilarni o'z ichiga oladi. Ushbu o'lchovlar o'quvchilarning akademik yo'llarida qadrlil, o'zaro birlashgan va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish uchun samarali ishlaydi.

Maktablarda psixologik xavfsiz muhitni yanada rivojlantirish uchun quyidagi yondashuv va qoidalardan foydalanish mumkin:

- Ruhiiy salomatlik va farovonlik muhitiga ega bo'lish - bu odatda maktabning ilmiy nuqtai nazardan nimaga erishmoqchi ekanligini ko'rsatadigan muhim birinchi qadam sifatida ko'riladi.
- O'qituvchilarning psixologik barkamolligi va farovonligi haqida olib boriladigan tashabbuslarga ustuvor ahamiyat berish;
- Ushbu dasturning bir qismi sifatida mashqlar, dam olish, stressni boshqarish va ongni rivojlantirish mashg'ulotlar, guruhlar yoki sinflarni taklif etish;
- Butun maktabda ruhiy salomatlik, qiyinchiliklarga chidamlilik va shaxsiy farovonlik, jamoada samarali muloqot, shu jumladan, fikr almashish bo'yicha ko'nikmalarni oshirish - tezkor va samarali o'qitish usullaridan foydalanish; Xo'sh, nima uchun psixologik xavfsizlik muhim? O'quvchilarning kelajak karyerasiga ham ta'sir etishini hisobga olgan holda, Xodim sifatida ular quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishlari mumkin:
- O'z kuchsiz nuqtalarini anglab yeta olish va ularni yashirmasdan bayon eta bilish;
- Ishonch hissining kuchligi;
- Chuqur hurmat hissi;
- Turli xil dunyoqarashlarni qabul qila olish qobiliyati

Ish va ta'lim jarayonida o'z-o'zini psixologik jihatdan xavfsizroq his qilish uchun har bir kishi aytishi mumkin bo'lgan bir nechta oddiy, kam uchraydigan, lekin kuchli iboralar: "Bilmadim". "Menga yordam kerak". "Men xato qildim". "Afsusdaman". Har bir o'quvchi o'zining xatoga yo'l qo'yadigan inson ekanligini tan olishga tayyor bo'lishga o'rgatilishi lozim. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni tan olishga qat'iyat hosil qilish orqali, ham texnik, ham psixologik xatolar darajasi kamayadi va ular ish joyini tanlash bosqichiga kelganda, albatta, ochiq va mazmunli suhbatlar qila olishadi.

Psixologik xizmat tashkil etish yosh va pedagogik psixologiya, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik maslahat sohasida umumpsixologik va maxsus psixologik bilimlar olgan mutaxassislar (psixolog) tomonidan amalga oshiriladi. Psixologik xizmatga jalb qilingan pedagoglar esa, bu mutaxassislikni olish uchun maxsus qayta tayyorgarlikdan o'tishlari lozim. Mohiyatan, psixologik xizmat bir necha bosqichli jarayon sanalib, unda psixologik maslahat, psixodiagnostika va

psixokorreksiya kabi sohalar usullaridan samarali foydalaniladi. Quyida biz ta'lim har qanday ta'lim muhiti uchun qulay sanalgan psixologik xizmat va uning tarkibiy choratadbirlari haqida to'xtalib o'tamiz.

I.G.Kolesnikovaga ko'ra, ta'lim muhitida psixologik konsultasiya ishlarini olib borishda psixolog mutaxassis quyidagi ishlarni olib boradi:

1. Bolalar, o'qituvchilar, talabalar ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan ma'muriyat, direktor, rektor, mudir, o'qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari, xodimlariga aniq, ilmiy asoslangan maslahatlar berish;
2. Ta'lim, taraqqiyot, tarbiya, kasb tanlash va turmush qurish, o'zaro munosabat, muommila va muloqot sirlari, tengdoshlar va voyaga etmaganlar munosabati, masalan, dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan individual, guruhiy, jamoaviy tarzda maslahatlar uyushtirish;
3. Ma'muriyatga, bolalar, o'quvchilar, talabalarga (yotoqxonada, klublarda, kutubxonalarda) qiziqtiruvchi masalalar bo'yicha bolalar, o'quvchilar, talabalarning psixik o'sishi xususiyatlariga oid ma'lumot berishi, o'g'il va qizlarni asrab olish, onalik va otalikdan mahrum qilish, tashkilotlarni g'amxo'rlik va vasiylik to'g'risidagi qabul qilgan qarorga munosabati, shaxs taqdirini hal qilishda qatnashishi va maslahatli fikr berishi lozim;
4. Ota onalarga bolaning psixik rivojlanishi xususiyatlarini shaxs sifatida shakllanishi, o'zaro munosabat maqomlari, bunda farzandlarning yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyatlari muammosi bo'yicha ilmiy-amaliy maslahatlar beradi;
5. Yangi tipdagi maktablarga o'rta-maxsus va kasb-hunar kolleji o'quvchilari, akademik litsey talabalariga ularning imkoniyati, istiqboli to'g'risida ilmiy – amaliy xususiyatga molik konsultativ ishlar olib borish yoshlarni saralash, tanlash, kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash, tanlov komissiyasida maslahatchi sifatida ishtirok etish.

Mazkur ishlar ta'lim sub'ektlarini maktabda, litseylarda, universitetlarda o'qitish davomida psixologik pedagogik jihatdan chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning individual xususiyatlarini, ta'lim tarbiyadagi nuqsonlarning sabablarini aniqlashga mo'ljallangandir. Diagnostik ishlar guruhiy yoki individual tarzda o'tkaziladi. Bu asnoda amaliy psixolog quyidagi vazifalarni bajaradi.

Maslahat berish ishlari-amaliyotchi psixologning asosiy faoliyat turlaridan biridir. Maslahat berish ishlari o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar uchun olib boriladi. Maslahat berish ishlari individual va guruhiy bo'lishi mumkin. Amaliyotchi psixologlar ish tajribasini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar ko'pin-cha psixologga quyidagi muammolar bo'yicha murojaat qiladilar, turli fanlar bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, tortinishlar yani o'zlarida bo'lgan malumotni ham ayta olmasliklari, bolalarning o'qiy olmasligi va istamasligi, guruhda

nizoli vaziyatlar, do'slashishdagi o'z aro muommolar, shaxsiy pedagogik ta'sirning natija bermasligi, har xil yoshdagi bolalarning tengdoshlari oila muloqati va bolalar jamoasining shakllanishi, kasbiy malakalarini oshirish yo'llari, o'quvchilarning qobiliyatlari, layoqatlari, qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish yo'llari, o'quvchilar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish. Psixolog o'quvchi yoki talaba yoshlar bilan bevosita aloqada ularda vujudga kelgan muammolarni hal qiladilar. Bu to'g'ridan to'g'ri maslahat berish deb ataladi. Ba'zan o'quvchilarga va ota-onalarga o'qituvchilarning u yoki bu muammolari bo'yicha maslahat beradi, bu bivosita maslahat berishdir, bunda ma'lum qoidalarga amal qilishga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA BERILADIGAN TA'LIM MAZMUNI. In E Conference Zone (pp. 22-25).
2. Adilova, M. (2023). THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF TRAPS IN THE SOCIAL NETWORK ON YOUTH MIND AND SPIRITUALITY. Open Access Repository, 4(2), 500-505.
3. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(2).
4. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(1).
5. Muratovich, M. E., Kurbon, O., & Shamsiyevna, A. M. (2022). Some features of the formation of mathematical representations in preschoolers in the process of familiarizing them with the size and shape of objects.
6. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA O'ZINI-O'ZI ANGLASHDA OILANING ROLI. In E Conference Zone (pp. 11-16).